

O'zbekistonda g'o'zaning yangi navlari yaratildi

Ulashing

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi olimlari tomonidan g'o'zaning yangi «Zangi-Ota-2», «Ishonch» hamda «Zafar» navlariga patent olindi.



Foto: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Fanlar akademiyasi [xabariga](#) ko'ra, g'o'zaning yangi istiqbolli «Zangi-Ota-2» navi tezpishar, tola chiqimi va sifati yuqori, turli iqlim-tuproq moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Hozirda bu nav Qashqadaryo viloyati

yangi navlar urug'ligini ko'paytirish fermer xo'jaligida ko'paytirilmoqda.

G'o'zaning yangi istiqbolli «Ishonch» navi andoza navlarga qaraganda, suv tanqisligi, tuproq sho'rxokligiga bardoshli, tola sifati jahon standartlariga to'la javob beradi. Ishonch g'o'za navi hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatining suv tanqis tumanlarida ekib ko'paytirilmoqda.

G'o'zaning istiqbolli «Zafar» navi olingan natijalarga asosan respublikaning turli viloyat nav sinash shoxobchalarida tolaning sifat ko'rsatkichlari yuqori va barqaror bo'lganligini ko'rsatdi. Bu nav hozirgi kunda Quva tumani yangi navlarni urug'ligini ko'paytirish fermer xo'jaliklarida ekib ko'paytirilmoqda.

Eslatib o'tamiz, avvalroq O'zbekistonda g'o'zaning yangi - «Niyat» navi [yaratilgandi](#).

<https://kun.uz/uz/news/2019/02/06/ozbekistonda-gozaning-yangi-navlari-yaratildi>